



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

LAVOZIMGA SAYLANISH YOKI TANLOVDAN O'TISH NATIJASIDA MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA YUZAGA KELADIGAN YAKKA TARTIBDAGI MEHNATGA OID MUNOSABATLAR

Rustamova Shaxzoda

Samarqand Davlat Universiteti

Yuridik Fakulteti 3 -Bosqich Talabasi

REJA:

- 1.Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning yuzaga kelishi
- 2.Lavozimga saylanish yoki tegishli lavozimni egallash uchun tanlovdan o'tish natijasida mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar
- 3.Lavozimga tayinlash yoki lavozimga tasdiqlash natijasida mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar
4. Vakolatli davlat organlari tomonidan ishga yuborish munosabati bilan mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar
5. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning Mehnat Kodeksida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra yuzaga kelishi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi 30.04.2023

Lex.uz <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

2. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug'i, 14.08.2023 yilishga qabul qilish chog'ida tanlov o'tkazish to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida

[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3451]

3.Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori <http://lex.uz//ru/docs/-97349>

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mehnat Kodeksida 3-bob ya'ni Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning subyektlari va yuzaga kelish asoslari yangi huquqiy institut sifatida kiritilgan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mehnat Kodeksining 3-bobi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlар (19-25-moddalar)
2. Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning yuzaga kelish asoslari (26-33-moddalar)

Yakka tartibdagi mehnat munosabatlari – bu mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini ish beruvchi tomonidan ta‘minlashda xodimning mehnat vazifasini ichki mehnat tartibiga bo‘ysungan holda haq evaziga shaxsan bajarishi haqidagi, xodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi kelishuvga asoslangan munosabatlaridir.

Yangi Mehnat kodeksi xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta‘minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Mehnat Kodeksining 26-moddasida Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning yuzaga kelishi deb nomlanib unga ko‘ra xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar Mehnat Kodeksga muvofiq ular tomonidan tuziladigan mehnat asosida yuzaga keladi.

Qonunchilikda yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud tashkilot ustavida (nizomida) belgilangan hollardava tartibdagi mehnatga oid munosabatlar Mehnat shartnomasiga asosan quyidagilar natijasida yuzaga keladi:

1. Lavozimga saylanish yoki tegishli lavozimni egallash uchun tanlovdan o‘tish;
2. Lavozimga tayinlash yoki lavozimga tasdiqlash;
3. Vakolatli davlat organlari tomonidan ishga yuborish;
4. O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatiga bo‘lgan huquqqa doir tasdiqnama berish;
5. Ota-onaning har ikkisining yoki ota-onadan birining (ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxsning) roziligi;
6. Ish beruvchining zimmasiga mehnat shartnomasini tuzish majburiyatini yuklatish to‘g‘risidagi sud qarorini qabul qilish;
7. Shaxsiy mehnatdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan va fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomasi asosida yuzaga kelgan munosabatlarni sud tomonidan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar deb e’tirof etish.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mehnat shartnomasi tegishli tarzda rasmiyalashtirilmagan taqdirda, xodim va ish beruvchi o'rtasidagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar ish beruvchining yoki uning shunga vakolatli bo'lgan vakilining ijozati bilan yoki topshirig'iga ko'ra xodimga haqiqatda ishlashga ruxsat etilganligi asosida ham yuzaga keladi.

Lavozimga saylanish yoki tegishli lavozimni egallahash uchun tanlovdan o'tish natijasida mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar:

- Agar lavozimga saylanish xodimdan muayyan mehnat vazifasini bajarishni talab etsa, lavozimga saylanish natijasida mehnat shartnomasi asosidagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar yuzaga keladi.
- Agar mehnat to'g'risidagi qonunchilikda yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud tashkilot ustavida (nizomida) tanlov bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan lavozimlar ro'yxati va ushbu lavozimlarga tanlov o'tkazish tartibi belgilangan bo'lsa, tegishli lavozimni egallahash uchun tanlovdan o'tish natijasida shartnomasi asosidagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar yuzaga keladi. (MK 27-modda)

2019 yil 3 oktyabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Mazkur agentlik davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Farmonda belgilanganidek, endi davlat organlari va tashkilotlaridagi davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshiriladi (saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlar bundan mustasno). O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, «Xalq banki» AJ hamda Nukus shahri, Andijon shahri, Buxoro shahri, Jizzax shahri, Qarshi shahri, Navoiy shahri, Namangan shahri, Samarqand shahri, Guliston shahri, Termiz shahri, Angren shahri, Bo'ka va Bekobod tumanlari, Farg'ona shahri, Urganch shahri, Mirzo Ulug'bek tumanida 2020 yil 1 yanvardan boshlab — tajriba tartibida; davlat fuqarolik xizmati nazarda tutilgan respublikaning barcha davlat organlari va tashkilotlarida 2021 yil 1 yanvardan boshlab davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish ochiq mustaqil tanlov asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, davlat organlari va tashkilotlarining



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kadrlar bo‘linmalari faoliyatiga uslubiy rahbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat organlari va tashkilotlari kadrlar bo‘linmalarining rahbarlari Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va tegishli ravishda uning filiallari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi, har uch yilda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligida attestatsiyadan o‘tadi. Qonunchilikka muvofiq tegishli tartibda bir muddatga saylanadigan lavozimlar quyidagilar:

Qonunchilik palatasi spikeri;

Senat raisi;

Prezident (amaldagi

Konstitutsiyada ham belgilangan);

Viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari kengashining raisi;

Hokimlar;

Oliy sudning raisi va rais o‘rribosari;

Sudyalar oliy kengashining raisi va rais o‘rribosari;

Markaziy saylov komissiyasi raisi;

Bosh prokuror.

O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 14-avgustdagি Ishga qabul qilish chog‘ida tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi namunaviy Nizomi qabul qilindi . Nizomning uchinchi bandida Ish beruvchi tanlovnii tashkilotdagi bo‘sh (vakant) ish o‘rni uchun munosib nomzodlarni tanlash maqsadida tashkil etadi va o‘tkazilishi belgilandi. Ishga qabul qilish chog‘ida tanlovnning o‘z vaqtida va sifatli tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minalash uchun tashkilot rahbarining buyrug‘i bilan doimiy faoliyat yuritadigan tanlov komissiyasi (bundan buyon matnda Tanlov komissiyasi deb yuritiladi) tashkil etiladi.6. Tanlov komissiyasi tarkibi tashkilotning xodimlari va tegishli sohaning malakali mutaxassislari orasidan kamida besh kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi. Tanlov komissiyasi quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi:

tanlov o‘tkazish vaqtini belgilash;

tanlovnning sifatli o‘tkazilishini ta’minalash maqsadida komissiya tarkibiga professional va malakali mutaxassislarni jalb qilish;





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

malakali kadrlarning tanlab olinishini ta'minlash maqsadida tanlov tadbirlari o'tkazilish jarayonini nazorat qilish. Tanlov komissiyasi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o'rganib chiqish;

nomzodning shaxsga doir ma'lumotlarini uning roziligesiz oshkor qilmaslik;

tanlovnini o'tkazish vaqtida nomzodlarga beriladigan savollarni sifatli va bo'sh (vakant) ish o'rni uchun belgilangan malaka talablariga muvofiq ishlab chiqish.

Tanlov quyidagi bosqichlardan iborat hisoblanadi:

tanlovnining o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish;

nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o'rganib chiqish;

nomzodni test, suhbat va (yoki) amaliy mashg'ulot sinovlaridan o'tkazish .

Vakolatli davlat organlari tomonidan ishga yuborish munosabati bilan mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar



Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslarning yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlari mehnat shartnomasi asosida ularni mahalliy mehnat organining yo'llanmasi bo'yicha "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda ishga joylashtirish natijasida yuzaga keladi.

Davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari bilan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar oliy ta'lim tashkilotining taqsimot komissiyasi tomonidan berilgan mehnat shartnomasi asosida ularni ishga yuborish natijasida yuzaga keladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Muqobil xizmatga chaqirilgan fuqarolarning yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlari tuman mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan muqobil xizmatni o‘tash joyini tayinlash haqida berilgan ko‘rsatma bo‘yicha mehnat shartnomasi asosida ularni tashkilotlarga yuborish natijasida yuzaga keladi.O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomalar mavjud bo‘lganda mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar

Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qonuniy ravishda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet davlatlar fuqarolari va doimiy ravishda boshqa davlatlar hududida yashayotgan fuqaroligi bo‘limgan shaxslar bilan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar vakolatli davlat organi bergan O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati huquqiga doir tasdiqnomalar olinganidan, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa talablar bajarilganidan keyin tuziladigan mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladi.

Ish beruvchining zimmasiga mehnat shartnomasini tuzish majburiyatini yuklatish to‘g‘risidagi sud qarori qabul qilinishi natijasida mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladigan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar

Ish beruvchi tomonidan ishga qabul qilish qonunga xilof ravishda rad etilgan shaxslar bilan yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar ish beruvchining zimmasiga mehnat shartnomasini tuzish majburiyatini yuklatish to‘g‘risidagi sud qarori qabul qilinishi natijasida tuzilgan mehnat shartnomasi asosida yuzaga keladi.

